



Lingvo
Science.uz

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 2 | SON 2

2026



SAYT: <https://Lingvoscience.uz>

LINGVOSCIENCES.UZ

2-jild 2-son 2026-yil

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

**CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND
CULTURAL STUDIES**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И
КУЛЬТУРОЛОГИИ**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail, zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

“Lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarining dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektr
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 2-son (fevral, 2026). - 25 bet.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraximov Abror

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI..... 5-10

Xudoyorov Shodiyor

OLIY TA'LIMDA "PLASTIK ANATOMIYA" FANINING O'QUV-USLUBIY ASOSLARI 11-16

Toshmatov Boboxon

O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING
O'RNI 17-20

Jo'rayeva Sohibjamol, Hayitova Zilola

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI 21-24

Article / Original Paper

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Hayitova Zilola Maxmudjonovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Unda o'quvchilarda mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, kasbiy yo'nalishni tanlashga tayyorlash va shaxsiy moyilliklarni aniqlashda psixologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda shaxsning erta yoshdan boshlab kasb tanlash motivatsiyasi, oilaviy va ijtimoiy omillarning ta'siri, shuningdek, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatining o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, kasbga yo'naltirish, psixologik xususiyatlar, motivatsiya, shaxs rivoji, kasbiy qiziqish.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROFESSIONAL ORIENTATION OF STUDENTS OF SMALL SCHOOL AGE

Jurayeva Sahibjamal Norgobilovna

Uzbekistan named after Nizami national Pedagogical University Professor in the Department of psychology, doctor of Psychological Science (DSc)

Khayitova Zilola Maxmudjonovna

Nizami O'zMPU Teacher of the Department "psychology"

Annotation. This article examines the psychological characteristics of career guidance among primary school students. It analyzes the processes of developing interest in work, preparing children for conscious career choice, and identifying their personal inclinations. The study emphasizes the role of motivation, family and social influences, as well as the collaboration between teachers and psychologists in fostering early professional orientation.

Keywords: primary school age, career guidance, psychological features, motivation, personality development, professional interest.

DOI: <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I2Y2026N04>

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirliги, ravshanligi, sofliги, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliги o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim-

tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.[1]

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o'sadi. Kuzata bilish muvafaqqiyatli o'qish uchun zarur shartlardan biridir. O'quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o'sib boradi. Bu yoshdagi o'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari katta yoshdagilardan deyarli qolishmasdan to'g'ri chiziqni ko'z bilan chamalab teng ikki bo'lakka bo'la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o'rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko'z bilan chamalab, shu masofani bosib o'tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar.[2]

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv ixtiyorsiz diqqat ko'proq materiallarining yaqqolliqi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his- kuchli irodaviy zo'riqishsiz fan asoslarini egallash tuyg'ularni uyg'otadi va imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.[5]

Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyani tashkil etilishini talab etadi. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi.

Shuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarning ta'lim olishi munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. Buning sabablari quyidagilar:

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;

3) ularning nutq boyligini yetishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o'quvchilar matnni to'g'ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar. Bunday holat shu yoshdagi bolalarda albatta bo'lishi kerak emas. Mexanik esda qoldirish ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarida mantiqiy xotirani o'stirishga yetarli e'tibor bermagan hollarda bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quv materialining ma'nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushirish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi. O'qish jarayoni uchun ixtiyoriy esda qoldirish ham, ixtiyoriy esga tushirish ham barobar talab etiladi. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z xayollari va tasavvurlariga asoslangan holda qiziqarli ertak va hikoyalarni o'zlari mustaqil ravishda to'qiy oladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar.[4]

Kichik maktab davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. U endi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning barcha bilish jarayonlarini rivojlanishiga va o'z-o'zidan atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini, munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. O'quvchi endi o'z qiziqishlarini ajrata boshlaydi. Agar o'qituvchi va ota-onalar tomonidan qiziqishlari tog'ri yo'naltirilsa, unda shu sohani egallash ishtiyoqi paydo bo'ladi. Muntazam mashq qilish va aynan faoliyatidagi muvaffaqiyatlar zavqi uning kelgusida sohani tanlashiga ham asos bo'ladi. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar birgalikda oquvchining tabiiy layoqatini aniqlab, o'zining qiziqishlarini to'g'ri topishida va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam bergan taqdirimizdagina, ertangi kun o'z kasbini to'g'ri tanlaydi. Bu esa faoliyatning muvaffaqiyati ushun muhimdir.

Xulosa. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning kelajakdagi hayot yo'lini to'g'ri tanlashida muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chuqur

o'rganish imkonini beradi. Oilaning, maktabning hamda psixolog va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bolalarning mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi, ularda kasbiy motivatsiyani rivojlantiradi. Shunday qilib, erta yoshdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlari izchil olib borilsa, o'quvchilarda ongli ravishda kelajak kasbini tanlash, mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik sifatleri mustahkamlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimova, V.M. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Жўраева С.Н.Замонавий педагог имижда ижтимоий муносабатларнинг о'рни Педагогик маҳорат.Илмий-назарий ва методик журнал.- 2023, № 6
3. Жўраева С.Н.Замонавий педагог имижини ижтимоий-психологик тадқиқ етиш мезонлари Bola va Zamon.-№ 3. 2023
4. Жўраева С.Н.Педагогларнинг имиджи касбиy yetuklik omillaridan biri sifatida. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, -2023.№ 2
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari. Dissertatsiya ishi 2025.

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

2-jild 2-son 2026-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).